

O'QUVCHILARDA TABIIY ILMIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH

Shahnoza Anvarova Asqarjon qizi

O'zMu tadqiqotchisi

xadijaasqarovna@gmail.com

Bugungi kunda ilm-fan va texnikaning jadal taraqqiy etishi xalq ta'limi yo'nalishida ham ulkan islohotlarni amalga oshirish talabini qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-sonli qarorining 5-ilovasi "2020 — 2025 yillarda kimyo va biologiya yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo'yicha maqsadli dastur" ning 6-bandida 1- 6 sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o'rniga tabiiy fan (science)ni yagona fan sifatida tajriba-sinov tariqasida o'qitishni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha quyidagi vazifalar:

1. Milliy o'quv dasturi va o'quv rejaga tegishli o'zgartirishlar kiritish.
2. Tabiiy fan uchun darsliklarni yaratish guruhini shakllantirish.
3. Tabiiy fan uchun darsliklar yaratish.
4. O'qituvchilarning yagona fan bo'yichabilimlarini hamda uslubiy ko'nikmalarini yaxshilash bo'yicha bo'yicha malakasini oshirish.
5. Tabiiy fanlarni 2021-2022 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish. "Tabiiy fanlar" o'z ichiga biologiya, geografiya, fizika, kimyo o'quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

Tabiiy fanlarni o'qitishni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish, darslikla yaratish vazifalari biz fiziklarga ham mas'uliyat yuklaydi va yangi kirib kelayotgan fan va darsliklar ustida ishlash, jahon standartlariga javob bera oladigan raqobatdosh, kreativ fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlashni oldimizga dolzarb masala qilib qo'yadi.

Xabaringiz bor, joriy yilning 13-iyul kuni Toshkent shahrida Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi, UNICEF, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti hamkorligida Tabiiy fanlar bo'yicha xalqaro ekspert Filippa Gardom Halm ishtirokida "Tabiiy fanlar – ilm-fan olamiga ilk qadam" mavzusidagi darsliklari taqdimotiga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.

"Masalan, agar o'quvchilar iqlim o'zgarishi haqida yaxshi bilsalar avtomobil o'rniga velosiped sotib olish kerakdir yoki jamoat transportidan foydalanish foydaliroq degan xulosaga kela oladilar. Ular odamlar odatda qanday qaror qabul qilishiga qarab emas, tanqidiy fikrlash orqali qaror qabul qilishga o'rganadilar", – deya ta'kidladi u.

Albatta, quruq mavzuni yodlab olib, hayoti davomida nima uchun kerak ekanini tushunolmagan a'lochi o'quvchiga qaraganda, olgan bilimni o'ylab tahlil qila oladigan bolada bilim butun umrlik qoladi. Shu sababdan kreativ fikrlashga asoslangan holda o'tiladigan dars va tuzilayotgan darsliklar bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning bu ilmiy ishimizni tadqiq qilishdan maqsadimiz ham o'rganganlarimiz fizik bilimlar, qonuniyatlar, qolaversa fizika o'qitish metodikasidagi innovatsion texnologiyalar, xalqaro dasturlar asosida yurtimiz kelajagiga fikrlashi keng kashfiyotchi olimlarni yetishtirishga hissa qo'shish, yoshligidan farzandlarimizni atrofida ro'y beryotgan jarayonlar haqida fikrlash, masalalarni tahlil qila olish, muammolarga yechim topa olishga undaydigan "tabiiy ilmiy savodxonlikni oshiruvchi" qo'llanmalar ishlab chiqishdir.

TABIIY ILMIY SAVODXONLIK- bu

- shaxsning tabiiy fanlarga oid g'oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog'liq muammolarni hal qila olishi;
 - nazariy bilimlar asosida turli tabiiy obyektlar, hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish, tasavvur qila olish va mohiyatini tushunish;
 - kundalik hayotda kuzatadigan tabiiy hodisa va jarayonlarni tabiiy fanlarga oid atamalar, tushunchalar hamda umumiy qonuniyatlarni olgan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanib tushuntira olish, amalda qo'llash;
 - turli axborot manbalarida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, saralab, ulardan ta'limiy maqsadlarda foydalanish va muloqot jarayonida bildirilgan fikrlarni tushungan holda, mustaqil va ijodiy fikrlash;
 - jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lib, o'z faoliyatini kreativ rivojlantira olish;
 - salomatlik va sog'lom turmush tarzining nazariy hamda amaliy asoslarini bilishdan iborat.
- Prezident qaroriga binoan mamlakatimiz tarixida ilk bor Milliy o'quv dasturi asosida 2021-2022- o'quv yili uchun 1-2 sinf Tabiiy fanlar darsligi amaliyotga joriy etildi.

Joriy yilda yangi o'quv yili uchun 7 ta tilda o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma bilan jami 8 nomdagi 3-va 6-sinf Tabiiy fanlar darsliklari tayyorlandi. 3-sinf Tabiiy fanlar 728 330 tirajda, 6-sinf Tabiiy fanlar darsligi 723 716 tirajda nashr etiladi.

An'anaviy yondashuvga asoslangan darsliklarda avval matn, keyin savollar berilgan bo'lsa, Science darsligida o'quvchining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida avval savollar berilib keyin matn keltirilgan. Ma'lumotlarning aksariyat qismi esa matn ko'rinishida emas rasm yoki illyustrasiyalar ko'rinishida. Bu bolalarda har xil manbalarni tushuna olish, mavzuga kreativ yondashish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu farzandlarimiz rivoji uchun quvonarli hol albatta.

Biz tadqiq qiladigan ilmiy ishimiz ham aynan mamlakatimiz ta'lim tizimiga kirib kelgan "science" faniga yordam sifatida o'quvchilarda tabiiy ilmiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, ishimiz davomida biz ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan xalqaro dasturlardan biri bo'lgan PISA dasturi va uning "Tabiiy ilmiy savodxonlik" bo'limi, bugungi kunda uning dolzarbligi, afzalliklari, kompetensiyalari, dunyo miqiyosida bu borada qilinayotgan ishlar, izlanish olib borayotgan olimlar va ularning ishlari, shuningdek,

yurtimizda qilinayotgan tadqiqotlar haqida to'xtalib o'tamiz, hamda fizikaviy bir qator mavzularni ochib berishga qaratilgan PISA savollarini tuzib, "Soddadan murakkabga" tamoyili bilan o'quvchilarga hayotimizni o'zgartirgan ixtirolar zahirida qanday qonuniyatlar yotganini tushuntirishni; o'quvchi va o'qituvchilar uchun "Tabiiy ilmiy savodxonlikni oshirish" ga doir qo'llanmalar ishlab chiqishni niyat qilganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm- fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4805-son Qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020 y., 07/20/4805/1174-son; <https://lex.uz/docs/4945470>
- 2.Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi. Tabiiy fanlar o'quv dasturi (https://t.me/dastur_muhokamasi – 2020)
3. Suyarov K.T va boshqalar. Tabiiy fanlar. 6-sinf uchun darslik. –Toshkent. Respublika ta'lim markazi, 2021. –136b.